



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 36 373,6 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar 35 506,3 mlrd. soʻm (102,9 %)ni, oʻrmon xoʻjaligi 729,2 mlrd. soʻm (103,9 %)ni, baliqchilik xoʻjaligi 138,0 mlrd. soʻm (105,3 %)ni tashkil qildi.


Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,4 foizni tashkil etdi.



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, foizda




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, foizda



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,6 foizi dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,0 foizi o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 foizi baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (4 279,9 mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (3 734,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on (171,1 mlrd. so‘m) va Samarqand (211,5 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari Oqdaryo (106,8 %), Payariq (106,0 %), Paxtachi, (105,1 %) hamda Pastdarg‘om (105,0 %) tumanlarida kuzatildi. Samarqand shahri (100,6 %) va Toyloq tumanida (100,7 %) esa aksincha, o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, foizda




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 35 286,4 mlrd. so'mni yoki o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 18 548,0 mlrd. so'm (103,1 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 16 738,3 mlrd. so'm (102,7 %)ni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, foizda






Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jaliklarning ulushi, foizda



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 3,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, foizda



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (50,7 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (97,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (28,7 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (0,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oqdaryo tumanida (45,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.




Dehqonchilik


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 18 548,1 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 103,1 foizni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52,6 foizni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming tn.



O‘shirish sur‘ati, foizda



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
foizda**



- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 674,0 ming tonna don (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,1 foiz ko‘p) yetishtirilgan.

Don yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmining 84,7 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda..




**Samarqand viloyati hududlari
kesimida donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 240,5 ming tonna sabzavotlar (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,1 foiz ko'p) yetishtirildi.

Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 36,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati
hududlari kesimida
sabzavot yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming tonna




O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 549,4 ming tonna kartoshka (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,0 foiz ko'p) yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmining 69,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
kesimida **kartoshka** yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 89,2 ming tonna poliz ekinlari (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,8 foiz ko'p) yetishtirildi.

Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining 77,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
kesimida **poliz** ekinlari yetishtirish
hajmi, ming tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 297,9 ming tonna meva (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,7 foiz ko'p) yetishtirildi.

Meva yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmining 51,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
kesimida meva va rezavorlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 493,9 ming tonna uzum (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,7 foiz kam) yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmining 66,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari
kesimida **uzum** yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 16738,3 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 47,4 foizni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining yetishtirish imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 231,6 ming tonna goʻsht (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,2 foiz koʻp), 1 048,2 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,5 foiz koʻp) yetishtirildi, 1 029,9 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,0 foiz kam) olindi, 5 976,2 tonna baliq (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 7,4 foiz koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 231,6 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,2 foiz ko'p) yetishtirildi.

Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmining 80,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, ming tonna**




Sut


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 048,2 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,5 foiz ko'p) yetishtirilgan.

Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmining 90,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
yetishtirilgan
sut hajmi, ming tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, foizda



**Olingan tuxum
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 029,9 mln. dona (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,0 foiz kam) tuxum olingan.

Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmining 54,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.


**Samarqand viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, mln. dona**

Baliqchilik


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, foizda



**Ovlangan baliqni
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5 976,2 tonna baliq (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 7,4 foiz ko'p) ovlandi.


Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmining 93,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq hududlar kesimida
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o‘shish sur‘ati




2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 foizi fermer xo‘jaliklari, 93,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 0,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, mos ravishda qo‘y va echkilar umumiy sonining 8,6 foizi fermer xo‘jaliklari, 86,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 4,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonining 16,2 foizi fermer xo‘jaliklari, 82,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 1,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonining 37,3 foizi fermer xo‘jaliklari, 45,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga, 16,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 689,8 ming taga yetdi, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 2,6 mingta (0,2 %)ga ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati, foizda



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning
umumiy
bosh soni, ming bosh**




2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 724,8 ming boshga yetdi, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 2,0 mingta (0,3 %)ga ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, foizda




**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlar bosh sonining 93,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 586,3 ming taga yetdi, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 4,6 ming ta (0,2 %)ga ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati, foizda



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilar bosh sonining 86,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 28 859 taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 778 ta (2,8 %)ga ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘shish sur‘ati, foizda



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlar bosh sonining 82,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 12 371,9 ming boshga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 155,3 ming ta (1,3 %)ga ko‘p.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, foizda




**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 45,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

**Samarqand viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• (66) 235-22-01